

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026
mart



**TOSHKENT SHAHRIDAGI TURIN
POLITEXNIKA UNIVERSITETI**

*Xalqaro ilmiy-amaliy onlayn konferensiya
materiallari to'plami*

**“GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV:
2030-YILGACHA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHDA
TEXNOLOGIK VA INDUSTRIAL SANOATNI RIVOJLANTIRISH
ORQALI MIKRO VA MAKROIQTISODIY BARQAROR
O'SISHNI TA'MINLASH DOLZARBLIGI”**

**“GLOBAL DIGITAL INTEGRATION: THE RELEVANCE OF
ENSURING MICRO AND MACROECONOMIC SUSTAINABLE
GROWTH THROUGH TECHNOLOGICAL AND INDUSTRIAL
DEVELOPMENT IN THE TRANSITION TO A GREEN
ECONOMY BY 2030”**

**«ГЛОБАЛЬНАЯ ЦИФРОВАЯ ИНТЕГРАЦИЯ:
АКТУАЛЬНОСТЬ ОБЕСПЕЧЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО
МИКРО- И МАКРОЭКОНОМИЧЕСКОГО РОСТА ЧЕРЕЗ
РАЗВИТИЕ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОЙ И ИНДУСТРИАЛЬНОЙ
ПРОМЫШЛЕННОСТИ В ПЕРЕХОДЕ К ЗЕЛЁНОЙ
ЭКОНОМИКЕ К 2030 ГОДУ»**

3-MAXSUS SON



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

*Elektron nashr.
2026-yil, mart.*

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ixamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

ICT WEEK UZBEKISTAN 2025: MILLIY TEXNOLOGIYALAR HAFTALIGINING YAKUNLARI VA ULARNING O'ZBEKISTON IT-EKOTIZIMIGA TA'SIRI	16
Jumaboyev Akmaljon Sheraliyevich	
THE ROLE OF STATE FINANCIAL CONTROL IN THE EFFICIENT USE OF BUDGET FUNDS	20
Gulyor Akhmatovna Kasimova, Biybinaz Makhmut qizi Esenbaeva	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ ПЛАТЁЖНЫХ СИСТЕМ В ФОРМИРОВАНИИ ФИНТЕХ-ЭКОСИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	22
Шамахмудова Шоира Олег кизи	
UZBEKISTAN'S STRATEGY FOR TRANSITION TO A GREEN ECONOMY: LABOR MARKET TRANSFORMATION, CHALLENGES AND PROSPECTIVE OPPORTUNITIES.....	27
Akbarova Barno Shukhratovna, Chintemirova Diyora Shukhratovna	
MODELS FOR MANAGING EDUCATIONAL REFORMS IN THE CONTEXT OF CULTURAL DIFFERENCES.....	32
Abdulmajeed Nabeel Azouz	
4-SANOAT INQILOBINING RAQAMLI TURIZMGA TA'SIRINI BAHOLASH	38
Sevinchova Nilufar Ne'mat qizi	
КОНЦЕПТУАЛЬНАЯ МОДЕЛЬ ИНТЕГРИРОВАННОЙ СИСТЕМЫ ESG-ТРАНСФОРМАЦИИ ПРОМЫШЛЕННОГО ПРЕДПРИЯТИЯ КАК ДРАЙВЕР ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ.....	41
Ташпулатов Дильмурад Рустамович	
RAQAMLI IQTISODIYOTDA FOIZSIZ MOLIYA MEKANIZMLARINING RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	44
Adilov Zuxriddin Marip o'g'li	
XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'INI RIVOJLANTIRISH VA BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	47
Tadjimirzayev Anvar Abduvaxidovich	
RAQAMLI IQTISODIY DINAMIKANI KOMPLEKS FUNKSIYALAR YORDAMIDA MODELLASHTIRISH.....	52
Ibrohimova Nilufar Qahramon qizi	
SANOAT SEKTORIDA BARQAROR RIVOJLANISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" INVESTITSIYALARNING IQTISODIY AHAMIYATI.....	55
Ibragimov Zaxid Taxirovich	
LOGISTIKA PROVAYDERLARI XIZMATLARIDAN FOYDALANISH ASOSIDA TEMIR YO'L TRANSPORTI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	59
Raximov Xasan Shukurjonovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИСПОЛЬЗОВАНИЮ ИНСТРУМЕНТОВ УПРАВЛЕНИЯ ПРОЕКТАМИ В РАЗЛИЧНЫХ ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ	64
Сидиков Зиёдулло Равшанович, Холиярова Шохиста Кахрамоновна	
SUG'URTA TASHKIOTLARINING BOZOR IQTISODIYOTIDAGI AHAMIYATI	68
Azamatova G.I.	
DON MAHSULOTLARINI YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASHDA INVESTITSIYALAR SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI.....	71
Po'latova Sug'diyona, S.Y.Xamidova	
MAHALLIY BUDJETLARNING DAROMAD BAZASINI KENGAYTIRISH ASOSIDA XARAJATLAR BARQARORLIGINI TA'MINLASH (SURXONDARYO VILOYATI MISOLIDA).....	74
Safarmurodova Marjona To'raqulovna	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSIYA FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA SOLIQ IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARINING IQTISODIY AHAMIYATI.....	77
Allaberganova Kumush Javlonbek qizi, Beknazarova N.T.	



DAVLAT SEKTORIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI VA ULARNING IQTISODIY AHAMIYATI	80
Abdullayev Bobirjon Mamurjanovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MOLIIYASI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI.....	84
Berdibekov Adhamjon Ilhomjon o'g'li	
MOLIYAVIY NAZORATNI TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY MEXANIZMLARI.....	87
Ashirov Jasur Dilshod o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT YORDAMIDA MOLIIYAVIY INKLYUZIYANI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	90
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	
NOMODDIY AKTIVLAR AUDITIDA RISKLARNI BAHOLASH VA AUDITORLIK DALILLARINI TO'PLASH USLUBIYOTINI TAKOMILLASHTIRISH	93
Ishanqulov Izzatilla Nurillayevich	
MEHNAT HAQI AUDITINING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA XALQARO AUDIT STANDARTLARI (ISA) KONTEKSTIDAGI TALQINI	96
Nomozov Ilhomjon Ziyodullo o'g'li	
INNOVATSION RIVOJLANISHDA MEHNAT RESURLARINING O'RNI VA AHAMIYATI	98
Artiqova O'g'iljon Zafar qizi	
THE IMPACT OF INFLATION AND EXTERNAL ECONOMIC SHOCKS ON THE NATIONAL ECONOMY.....	102
Suvonov Tolmasjon Faxritdinovich	
REWARD SYSTEMS AND EMPLOYEE PRODUCTIVITY IN HIGHER EDUCATION.....	105
Sultonboyeva Munira Bahodirovna, Sultanova Kamila Muktorali Kizi	
THE DIGITAL CATALYST: HOW TECHNOLOGICAL ACCESSIBILITY DRIVES GLOBAL TOURISM	110
Freshta Qayoumi	
BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH ORQALI KORXONA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	112
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
ASSESSMENT AND ANALYSIS OF INVESTMENT EFFICIENCY BY REGION IN UZBEKISTAN	115
Otajonova Charoskhon Polvonkuli qizi	
УЗВЗВМОСТИ АРІ В ЦИФРОВЫХ ПЛАТЕЖНЫХ СЕРВИСАХ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ОНЛАЙН ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ДЕНЕЖНЫЕ ПЕРЕВОДЫ	120
Садыков Азиз Миршарапович	
РАЗВИТИЕ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ СТРУКТУРНЫХ ИЗМЕНЕНИЙ В ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	124
Валижонов Х.А.	
O'YINCHOQ ISHLAB CHIQRARISHDA IMPORTGA QARAMLIKNI KAMAYTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY USULLARI (O'ZBEKISTON MISOLIDA)	127
Aminov Anvarxon Kazimovich	
ФАКТОРЫ И ПРОБЛЕМЫ ОСУЩЕСТВЛЕНИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНЫХ ДЕНЕЖНЫХ ПЕРЕВОДОВ В УЗБЕКИСТАНЕ	130
Гимранова О. Б.	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR VA INVESTITSION JOZIBADORLIKNI BAHOLASH	134
To'rayev Jasurali To'rayevich	
РОЛЬ СИТУАЦИОННОГО ЦЕНТРА В РАЗВИТИИ ЦИФРОВОГО ЗДРАВООХРАНЕНИЯ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ УЗБЕКИСТАНА.....	137
Омонов Олим Муродуллаевич	



IMPROVEMENT OF MANAGEMENT MECHANISMS FOR INCREASING THE INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF REGIONS.....	140
To'rayev Jasurali To'rayevich	
DEVELOPMENT OF MODERN METHODOLOGICAL APPROACHES IN THE MANAGEMENT OF THE ACTIVITIES OF SMALL INDUSTRIAL ZONES	144
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE MANAGEMENT OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT.....	147
To'rayev Jasurali To'rayevich	
ISSUES OF IMPROVING THE METHODOLOGY OF MANAGEMENT OF SMALL INDUSTRIAL ZONES.....	150
Shodmonkulov Kamoliddin Murodillayevich	
IQTISODIY XAVFSIZLIK INDIKATORLARINING CHEGARAVIY QIYMATLARINI BELGILASH MASALALARI.....	153
Islamov Anvar Ashirqulovich	
ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA APPLICATIONS IN UNIVERSITY MANAGEMENT: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN	156
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ASSESSING DIGITAL MATURITY IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS: AN INTEGRATED FRAMEWORK APPROACH	160
Berdiyev Temurbek Makhmudullo ugli	
ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF PRODUCTION COMPETITIVENESS IN TEXTILE ENTERPRISES AND THE ECONOMIC MECHANISMS OF ITS FORMATION.....	164
Xushvaqto'v Shuhrat Abduraufovich	
FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING COMMERCIAL BANK AUDITS AND ITS APPLICATION IN UZBEKISTAN	166
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
PROBLEMS IN COMMERCIAL BANK AUDIT PRACTICE AND DIRECTIONS FOR THEIR SOLUTION	168
Ibragimov Nodirbek Baxodir ugli	
IMPLEMENTATION OF SUSTAINABLE DEVELOPMENT PRINCIPLES IN ECO-FRIENDLY HOTELS.....	170
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
OPPORTUNITIES FOR APPLYING NATURAL RESOURCE CONSERVATION TECHNOLOGIES IN HOTEL MANAGEMENT.....	173
Dilfuza Igamberdievna Abidova	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA STRATEGIK REJALASHTIRISHNI AMALGA OSHIRISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	177
A.Y. Mardanov	
РОЛЬ ИННОВАЦИЙ И МАРКЕТИНГОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ В РАЗВИТИИ ХИМИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА(НА ПРИМЕРЕ АО «МАХАМ-ШИРЧИҚ»)	180
Хайдарова Камола Ахинжанована	
O'ZBEKISTONDA UY-JOY QURILISHINI RIVOJLANTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	183
Usmonov Mirumar Abdulla o'g'li	
ВНЕДРЕНИЕ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАСЧЕТ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ЗАТРАТ НА СТРОИТЕЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ.....	185
Асадова Мафтуна Саъдуллаевна	



IMPROVING THE ECONOMIC POTENTIAL OF OIL AND GAS INDUSTRY ENTERPRISES IN UZBEKISTAN: MODERN CHALLENGES AND DEVELOPMENT PROSPECTS	188
Bekmuhammedova Malika Iskandarbekovna	
ПЕРСПЕКТИВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ	191
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ И ИННОВАЦИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	193
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
РАЗВИТИЕ СИСТЕМЫ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ФИНАНСОВОЙ ПОДДЕРЖКИ ВОВЛЕЧЕНИЯ МАЛООБЕСПЕЧЕННЫХ СЕМЕЙ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКУЮ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ	195
Ережепов Куанышбай	
KORXONALAR DAROMADLARI VA XARAJATLARINI BOSHQARISHNI TAKOMILLASHTIRISH	198
Aymuxammedova Amina Kakajanovna	
KICHIK BIZNESNI MOLIALASHTIRISHNING ZAMONAVIY USULLARI	201
Jubanova Bayramgul Aymuratovna	
KNOW YOUR CUSTOMER MECHANISMS AS A TOOL FOR ENHANCING RISK MANAGEMENT SYSTEMS IN COMMERCIAL BANKS	204
Sherzod Fayziyev	
ТЕОРЕТИКО-НАУЧНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ НЕФТЕГАЗОВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	208
Бекмухамедова Малика Искандарбековна	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASHDA XALQARO TAJRIBANING AHAMIYATI	213
Islamov Anvar Ashirqulovich	
IMPROVING THE MECHANISMS FOR THE ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE INDUSTRIAL SECTOR BASED ON STRUCTURAL CHANGES AND INFRASTRUCTURAL FACTORS	217
Ne'matov Shokhrukhbek Mamurjon o'g'li	
THE ROLE OF FOREIGN INVESTMENT IN AGRICULTURE AND ITS IMPROVEMENT	220
Komaliddin Yusupov	
AVIAYUK ZANJIRIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK (DXSH) MEKANIZMI: XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON UCHUN INSTITUTIONAL MODEL	224
Anvarova Dilfuza Abdusattor qizi	
AN EMPIRICAL ANALYSIS OF THE FACTORS SHAPING CONSUMER BEHAVIOUR THROUGH DIGITAL PLATFORMS IN UZBEKISTAN	228
Jumayev Bobomurod Nurmaxmat o'g'li	
ВРМН-МОДЕЛИРОВАНИЕ ЭЛЕКТРОННЫХ УСЛУГ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СУБЪЕКТОВ БИЗНЕСА	232
Отабоев Нодирбек Ойбек углы	
DIGITALIZATION OF THE BANKING SECTOR OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN: ASSESSING THE EFFECTIVENESS OF DIGITAL PLATFORMS	236
Jumaniyozova Mukaddas	
THE ROLE OF INVESTMENT RISK MANAGEMENT IN ENHANCING FINANCIAL EFFICIENCY IN AGRICULTURE	240
Yusupov Komaliddin Bakhtiyor ugli	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA EKOLOGIK AUDIT VA BARQARORLIK HISOBOTINI TAKOMILLASHTIRISH	243
Mirzaev Komiljon Abdullajonovich	



USE OF FOREIGN EXPERIENCE IN ORGANIZING THE ACCOUNTING AND AUDITING OF BIOLOGICAL ASSETS	246
Axmetova S.S.	
THE SOCIOECONOMIC EFFECTS OF THE SHADOW ECONOMY: A THEORETICAL AND EMPIRICAL REVIEW	250
Rakhmonov Azizjon Sadullayevich	
IMPROVING THE MECHANISMS FOR ASSESSING INTERBANK COMPETITION IN THE DIGITAL BANKING SERVICES MARKET	257
Karimov Odiljon Boqiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISHNI RIVOJLANTIRISH VA RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI	262
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna	
XUSUSIY TIBBIYOT TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI RAQAMLI INTEGRATSIYA VA YASHIL IQTISODIYOT TAMOYILLARI ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH	265
Primkulova Zilola Abrorovna	
GLOBAL RAQAMLI INTEGRATSIYALASHUV SHAROITIDA TIBBIY XIZMATLAR BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH VA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ISTIQBOLLARI	268
Shamsikulova Moxina bonu Furkatovna	
HUDUDNI IJTIMOY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY YO'NALISHLARI	272
Raximov Jo'rabek Raximovich	
AHOLINI IJTIMOY HIMOYA QILISHNING TARIXIY VA SOTSIOLOGIK JIHATLARI	275
Abdullayeva Sayyora Aleksandrovna	
TEMIR YO'L ORQALI XALQARO YUK TASHISHDA BOJXONA QONUNCHILIGINI BUZISH HOLATLARI: TIPOLOGIYA, STATISTIK TAHLIL VA OLDINI OLIH CHORALARI	278
Berdiyev Abbas	
ONLAYN-TREYDINGNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA INVESTORLARNING XULQ-ATVOR RISKLARINI BAHOLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	281
Karimova Nurjahon Olim qizi	



ONLAYN-TREYDINGNING RIVOJLANISHI SHAROITIDA INVESTORLARNING XULQ-ATVOR RISKLARINI BAHOLASHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Karimova Nurjahon Olim qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Korporativ moliya va qimmatli qog‘ozlar”
kafedrası mustaqil tadqiqotchisi
E-mail: nur2025karimova@gmail.com
ORCID: 0009-0004-5791-6519

Annotatsiya. Tadqiqotda raqamli investitsion platformalar, mobil brokerlik ilovalari, ijtimoiy tarmoqlar va moliyaviy inflyuenserlar investorlarning qaror qabul qilish jarayoniga ta’sir etuvchi muhim omillar sifatida ko‘rib chiqilgan. Xususan, haddan tashqari ishonch, impulsiv savdo, FOMO, ommaga ergashish xatti-harakati, o‘yinlashtirish va axborot asimmetriyasi kabi xulq-atvor risklarining onlayn-treyding muhitida namoyon bo‘lish xususiyatlari asoslab berilgan. Tezisdagi xalqaro tadqiqotlar natijalari hamda O‘zbekiston fond bozorining raqamli transformatsiyasi sharoitida ushbu risklarni boshqarish zarurati yoritilgan. Shuningdek, investorlarni himoya qilish, moliyaviy savodxonlikni oshirish va raqamli platformalarda mas’uliyatli dizayn yondashuvlarini joriy etish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: onlayn-treyding, xulq-atvor risklari, investorlar, fond bozori, raqamli investitsion platformalar, FOMO, o‘yinlashtirish, moliyaviy inflyuenserlar, moliyaviy savodxonlik, O‘zbekiston kapital bozori.

Abstract. The study examines digital investment platforms, mobile brokerage applications, social media, and financial influencers as important factors affecting investors’ decision-making processes. In particular, it substantiates the specific manifestations of behavioural risks in the online trading environment, including overconfidence, impulsive trading, fear of missing out (FOMO), herd behaviour, gamification, and information asymmetry. The thesis highlights the findings of international studies and the need to manage these risks in the context of the digital transformation of Uzbekistan’s stock market. It also develops scientific and practical recommendations for strengthening investor protection, improving financial literacy, and implementing responsible design approaches on digital platforms.

Keywords: online trading, behavioural risks, investors, stock market, digital investment platforms, FOMO, gamification, financial influencers, financial literacy, capital market of Uzbekistan.

Аннотация. В исследовании цифровые инвестиционные платформы, мобильные брокерские приложения, социальные сети и финансовые инфлюенсеры рассматриваются в качестве важных факторов, влияющих на процесс принятия решений инвесторами. В частности, обоснованы особенности проявления в условиях онлайн-трейдинга таких поведенческих рисков, как чрезмерная уверенность, импульсивная торговля, FOMO — страх упустить выгоду, стадное поведение, геймификация и информационная асимметрия. В тезисе освещены результаты международных исследований, а также необходимость управления указанными рисками в условиях цифровой трансформации фондового рынка Узбекистана. Кроме того, разработаны научно-практические предложения по защите инвесторов, повышению финансовой грамотности и внедрению принципов ответственного дизайна на цифровых платформах.

Ключевые слова: онлайн-трейдинг, поведенческие риски, инвесторы, фондовый рынок, цифровые инвестиционные платформы, FOMO, геймификация, финансовые инфлюенсеры, финансовая грамотность, рынок капитала Узбекистана.

KIRISH

So‘nggi yillarda global moliya bozorlarida raqamli investitsion platformalar, mobil treyding ilovalari, onlayn brokerlik xizmatlari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqatiladigan investitsion axborotlarning kengayishi investorlarning qaror qabul qilish mexanizmlarini tubdan o‘zgartirmoqda. An’anaviy investitsion faoliyatda

investor qarorlari ko'proq fundamental tahlil, moliyaviy hisobotlar, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar va professional maslahatlar asosida shakllangan bo'lsa, onlayn-treyding sharoitida qaror qabul qilish jarayoni tezkor, vizual, emotsional va ko'pincha ijtimoiy ta'sirga bog'liq xususiyat kasb etmoqda. Shu sababli zamonaviy fond bozorida [1] investorlarning xulq-atvoriga oid risklarni o'rganish nafaqat nazariy, balki amaliy va regulativ ahamiyatga ega bo'lgan dolzarb ilmiy masalaga aylanmoqda.

Xalqaro tadqiqotlarda qayd etilishicha, onlayn-treyding platformalari investorlar uchun bozorga kirish imkoniyatini kengaytiradi, tranzaksion xarajatlarni kamaytiradi va investitsion operatsiyalarni tezlashtiradi. Biroq ushbu jarayon bilan bir qatorda investorlarning haddan tashqari ishonchi, tezkor foyda olishga intilishi, qisqa muddatli bozor signallariga ortiqcha reaksiya bildirishi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlar va moliyaviy inflyuenserlar ta'sirida qaror qabul qilishi kabi xulq-atvor risklari kuchaymoqda. Xususan, FCA tomonidan 2025-yilda e'lon qilingan tadqiqotda raqamli investitsion platformalardagi push-xabarnomalar (tezkor bildirishnomalar), o'yinlashtirish elementlari, tezkor savdo interfeyslari [2] va doimiy raqamli rag'batlantirish mexanizmlari investorlarning savdo faolligini oshirishi, ayrim holatlarda esa impulsiv qarorlar qabul qilish ehtimolini kuchaytirishi ta'kidlangan. IOSCO tomonidan 2025-yilda tayyorlangan hisobotlarda esa *digital engagement practices* (raqamli jalb etish amaliyotlari) hamda finfluenserlar (ijtimoiy tarmoqlarda moliyaviy tavsiya va sharhlar beruvchi shaxslar) faoliyati chakana investorlarning riskni baholash qobiliyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkinligi alohida ko'rsatib o'tilgan.

Mazkur masalaning dolzarbligi shundaki, onlayn-treyding investitsion jarayonlarni demokratlashtirgan bo'lsa-da, bu jarayon har doim ham investorlarning moliyaviy savodxonligi, risklarni anglash darajasi va uzoq muddatli investitsion intizomi bilan mutanosib ravishda rivojlanmayapti. Ayniqsa, yangi avlod chakana investorlarining fond bozoriga mobil ilovalar, ijtimoiy tarmoqlar, Telegram-kanallar, videokontentlar va qisqa muddatli bozor prognozlarini orqali kirib kelishi investitsion qarorlarda mustaqil va fundamental tahlilning roliga ta'sir ko'rsatishi mumkin. OECD tomonidan 2024-yilda Fransiya chakana investorlari misolida o'tkazilgan tadqiqotda ham yangi avlod investorlarini qo'llab-quvvatlash uchun raqamli moliyaviy savodxonlik, shaffof axborot berish va investorlarni himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirish zarurligi asoslangan.

O'zbekiston sharoitida ushbu mavzu yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakatda kapital bozorini rivojlantirish, fond bozori infratuzilmasini modernizatsiya qilish, elektron savdo tizimlarini kengaytirish, investitsiya platformalari [3] faoliyatini tartibga solish va aholining investitsion faolligini oshirish bo'yicha bosqichma-bosqich islohotlar amalga oshirilmoqda. Markaziy depozitariy faoliyatining raqamlashtirilishi, elektron ovoz berish va raqamli xizmatlarning joriy etilishi, shuningdek, investitsiya platformalari faoliyatini tartibga solishga qaratilgan normativ-huquqiy yondashuvlar fond bozorining yangi institutsional bosqichga o'tayotganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, bozor ishtirokchilarining investitsion madaniyati, xulq-atvor stereotiplari va raqamli muhitdagi risklarga nisbatan tayyorgarlik darajasi yetarli darajada o'rganilmagan ilmiy yo'nalish bo'lib qolmoqda.

Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, investorlarning xulq-atvor risklari [5] ko'p jihatdan klassik moliyaviy nazariyalarda nazarda tutilgan to'liq ratsionallik farazidan chetga chiqadi. Amalda investorlar ko'pincha mavjud axborotni to'liq va obyektiv tahlil qilmasdan, psixologik omillar, emotsional holat, ommaviy kayfiyat, o'tgan tajriba, ijtimoiy taqqoslash va qisqa muddatli foyda kutishlari asosida qaror qabul qiladilar. Onlayn-treyding sharoitida esa ushbu xatti-harakatlarning namoyon bo'lish ehtimoli ortishi mumkin, chunki raqamli platformalar investorga bozor bilan uzluksiz aloqada bo'lish, istalgan vaqtda bitim tuzish, real vaqt rejimida narx o'zgarishlarini kuzatish va boshqa investorlar xatti-harakatiga tezkor javob qaytarish imkonini beradi.

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tezisning asosiy maqsadi onlayn-treyding rivojlanishi sharoitida investorlarning xulq-atvor risklarini ilmiy jihatdan tahlil qilish, ularning asosiy shakllarini aniqlash hamda fond bozorida barqaror va mas'uliyatli investitsion muhitni shakllantirish bo'yicha nazariy-amaliy xulosalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida investorlarning haddan tashqari ishonchi, FOMO — foydani qo'ldan boy berishdan qo'rqish holati, ommaga ergashish xatti-harakati, ijtimoiy tarmoqlar ta'siri, finfluenserlar orqali shakllanadigan axborot asimmetriyasi, geymifikatsiya va impulsiv savdo qarorlari kabi omillar alohida ahamiyatga ega deb qaraladi.

Mazkur mavzuni o'rganish O'zbekiston fond bozorining raqamli transformatsiyasi sharoitida alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Chunki fond bozoriga yangi investorlarni jalb qilish jarayoni faqat texnologik infratuzilmani rivojlantirish bilan cheklanmasligi lozim. Bu jarayon investorlarning moliyaviy savodxonligini oshirish, raqamli platformalardagi xulq-atvor risklarini boshqarish, investitsion xizmatlarda shaffoflikni ta'minlash va regulator tomonidan zamonaviy nazorat mexanizmlarini [4] joriy etish bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Mazkur yo'nalishlarning uyg'un rivojlantirilishi onlayn-treyding imkoniyatlaridan samarali foydalanish, investorlarning asoslangan qarorlar qabul qilishini qo'llab-quvvatlash hamda fond bozori barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shunday qilib, onlayn-treydingning rivojlanishi fond bozorida yangi imkoniyatlar bilan bir qatorda ayrim yangi xulq-atvor risklarining yuzaga kelish ehtimolini oshirmoqda. Ushbu risklarni chuqur ilmiy tahlil qilish, xalqaro tajribani O'zbekiston sharoitiga moslashtirish va investorlarni himoya qilishga qaratilgan kompleks



yondashuvlarni ishlab chiqish zamonaviy kapital bozorini rivojlantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Onlayn-treydingning rivojlanishi investorlar uchun kapital bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish, investitsion operatsiyalarni tezlashtirish va savdo jarayonlarini soddalashtirish kabi ijobiy natijalarni yuzaga keltirmoqda. Biroq xalqaro tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli investitsion platformalar investorlarning qaror qabul qilish jarayoniga faqat texnik qulaylik sifatida emas, balki xulq-atvorni shakllantiruvchi muhit sifatida ham ta'sir ko'rsatadi. Xususan, FCA tomonidan 2025-yilda e'lon qilingan "Playing the Market" nomli tadqiqotda raqamli jalb etish amaliyotlari, ya'ni push-xabarnomalar, ilova ichidagi rag'batlantiruvchi signallar, tezkor savdo hisobini to'ldirish imkoniyati, savdoga undovchi interfeyslar va real vaqt rejimidagi bozor ogohlantirishlari investorlarning savdo faolligini oshirishi hamda ayrim holatlarda xulq-atvor risklarini kuchaytirishi qayd etilgan. IOSCO tomonidan 2025-yilda e'lon qilingan hisobotda *digital engagement practices* investorlar uchun axborot olish va moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatini [6] kengaytirishi mumkinligi, biroq noto'g'ri qo'llanganda savdo faolligining ortishi, riskni yetarli baholamaslik va impulsiv qarorlar qabul qilish ehtimolini kuchaytirishi alohida ta'kidlangan.

Mazkur holatni yanada aniqroq ko'rsatish uchun FCA tadqiqotida qo'llangan "potentially problematic engagement" indikatorlari asosida quyidagi jadval keltiriladi. Ushbu indikatorlar onlayn-treyding muhitida investor xatti-harakatidagi ehtimoliy xavfli belgilarni aniqlashga xizmat qiladi.

1-jadval

Onlayn-treydingda investorlarning ehtimoliy xulq-atvor riski indikatorlari

№	Xulq-atvor indikatorlari	Mazmuni	Investor uchun yuzaga keladigan asosiy risk
1	Tez-tez savdo qilish	Investor qisqa vaqt ichida ko'p sonli bitimlarni amalga oshiradi	Tranzaksion xarajatlarning ortishi, emotsional qarorlar va portfel barqarorligining pasayishi
2	Tungi vaqtda savdo qilish	Investor bozor harakatlariga kechki yoki tungi vaqtda reaksiya bildiradi	Charchoq, stress va yetarli tahlilsiz qaror qabul qilish ehtimoli oshadi
3	Tez-tez savdo hisobini to'ldirish	Investor savdo hisobiga muntazam ravishda qo'shimcha mablag' kiritadi	Yo'qotishlarni qoplashga urinish va riskni nazoratsiz oshirish ehtimoli kuchayadi
4	Bir kunda savdo hisobini to'ldirish va mablag' yechish	Investor qisqa muddatli moliyaviy harakatlarni amalga oshiradi	Investitsion strategiyaning barqaror emasligi va likvidlikka haddan tashqari bog'liqlik yuzaga keladi
5	Kunlik savdo (day trading)	Investor bir kun ichida aktivlarni sotib olib, qayta sotadi	Qisqa muddatli narx o'zgarishlariga haddan tashqari bog'lanish va spekulativ xatti-harakat kuchayadi
6	Portfel aylanmasining yuqoriligi	Aktivlar tarkibi tez-tez o'zgartiriladi	Uzoq muddatli investitsion strategiya zaiflashadi
7	Moliyaviy qiyinchilik fonida investitsiya qilish	Investor qarzdorlik yoki to'lov muammolari mavjud bo'lgan holatda ham savdo qiladi	Moliyaviy barqarorlikka qo'shimcha bosim paydo bo'ladi
8	Yagona aktivga haddan tashqari bog'lanish	Portfel faqat bitta yoki juda cheklangan aktivdan iborat bo'ladi	Diversifikatsiya yetishmasligi sababli zarar ko'rish ehtimoli ortadi

Manba: FCAning "Playing the Market: A Behavioural Data Analysis of Digital Engagement Practices and Investment Outcomes" nomli 2025-yildagi tadqiqotida keltirilgan potentially problematic engagement indikatorlari asosida muallif tomonidan tizimlashtirilgan.

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, onlayn-treydingda xulq-atvor risklari faqat investorning individual psixologik xususiyatlari bilan cheklanmaydi. Ular raqamli platformaning texnologik funksiyalari, savdo interfeysi, savdoga kirish qulayligi va investorning real vaqt rejimida bozor bilan doimiy aloqada bo'lishi natijasida shakllanadi. Ayniqsa, tez-tez savdo qilish, day-treyding, tungi savdo va tez-tez savdo hisobini to'ldirish kabi indikatorlar investorning investitsion qarorlari tizimli strategiyaga emas, balki qisqa muddatli impuls va emotsional reaksiya asosida shakllanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Raqamli axborot muhitida ommaga ergashish xatti-harakatining namoyon bo'lish ehtimoli ortishi mumkin. Ayrim investorlarning qarorlariga mustaqil tahlil bilan bir qatorda boshqa bozor ishtirokchilari, ijtimoiy tarmoqlar, Telegram-kanallar, YouTube sharhlovchilari va moliyaviy inflyuenserlarning fikrlari ham ta'sir ko'rsatishi mumkin.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100